

THE IMPORTANCE OF THE SYSTEM OF NATIONAL AND SPIRITUAL VALUES

Palimbetova Jayhun Qutlimuratovna
Risnazarova Aysanem Risnazarovna

Nukus State Pedagogical Institute, Department of Magistracy,
Masters of pedagogical theory and history

Summary: This article discusses issues of national values, its role in the education of the younger generation and children, his role in our lives.

Keywords: Upbringing, student, youth, national values, history, function, educational institution, future, factor

MILLIY-MA'NAVIY QADRIYATLAR TIZIMINING AHAMIYATI

Palimbetova Jayxun Qutlimuratovna
Risnazarova Aysanem Risnazarovna

Nukus Davlat Pedagogika Instituti, Magitsratura bo'limi,
Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi magistrantlari

Rezyume: Ushbu maqolada yoshlarni har tomonlama rivojlantirishda va tarbiyalashda milliy qadriyatlarning ahamiyati, ularning hayotimizdagi o'rnini xaqida so'z qilinadi.

Резюме: В данной статье рассматривается вопросы о национальных ценностях, его роль в воспитании подрастающего поколения и детей, его роль в нашей жизни.

Tayanch so'zlar: Tarbiya, o'quvchi, yoshlar, milliy qadriyatlar, tizim, tarix, vazifa, o'quv muassasalari, kelajak, omil

Ключевые слова: воспитание, ученик, молодежь, национальные ценности, история, функция, учебное заведение, будущее, фактор

Turli xalqlar va millatlar hayotiga islomiy qadriyatlar kirib borganida dastlab qarshilikka uchragan. Islom dini o'zining insonparvarlikka asoslangan qadriyatlari tizimini tavsiya qilar ekan, murosa va kelishuv yo'lidan borgan.

Har bir fanga o'z nomini bergan asosiy tushunchalar bo'lgani kabi «qadriyat» tushunchasi ham «qadriyatshunoslik» atamasi uchun shunday asos bo'la oladi. Farbda bu atama yunoncha «axio» (qadriyat) va «Logos» (fan, ta'limot) tushunchalaridan tashkil topgan. Qadriyat va qadriyatlar milliy g'oyaning muhim kategoriyalaridan biri, bo'lib, qadriyatlar axloqiy qoida va me'yorlar, ideallar va maqsadlardagi baholash mezoni va usullarini ham o'zida aks ettiradi. Ular halollik, poklik, o'zaro yordam, adolatlilik, haqiqatgo'ylik, ezgulik, tinchlik, shaxs erkinligi,

mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi fazilatlar, burch, vijdon, or-nomus, mas'uliyat kabi axloqiy tushunchalar shaklida namoyon bo'ladi. Qadriyat o'z tabiatiga ko'ra, ijtimoiy-tarixiy xarakterga ega. Ijtimoiy taraqqiyot jarayonida u o'zgaradi va takomillashadi. SHuning uchun qadriyat to'g'risidagi ta'limotlar ham takomillashib, rivojlanib boradi.

Oila — muqaddas. Oila qurish — o'ta mas'uliyatli ishdir. «Oila eskilik unsuri emas». U muqaddas, oilada millat kelajagi mujassam. Yoshlarni tarbiyalash, kamolotga yetkazish, ilmhunar berish, uylijoyli qilish — aksariyat oilalarning eng oliy maqsadidir. O'zbekning hayotdan ko'zlagan asl muddaosi — bolachaqli bo'lish, bularning to'yini, orzuhasasini ko'rish. Yosh avlodni hayotga yo'llantirish, bular uchun muayyan boshlanish nuqta — start pozitsiyasi yaratib berishga nisbatan munosabat turli millatlarda turlichadir. Ayrim xalqlar mentalitetida farzandlar voyaga yetgach, oilasi, otaonasini tashlab, faqat o'z kuchi bilan mustaqil oyoqqa turish uchun uyini tark etadi. O'zi ham oila qurib, farzand ko'rib, uni katta qilganda — u ham avlodlar vorisligiga chek qo'yib, oilasini tark etadi. Xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. Uzoq yillar davomida totalitar tuzumga qaramay o'zbek xalqining madaniy qadriyatlari, an'analari saqlanib qolindi.

Ma'naviy qadriyatlarning tiklanishi, milliy o'zlikni anglashi murakkab sharoitda - eski imperiya tuzumi barbod bo'lgan va yangi ijtimoiy munosabatlar qaror topayotgan bir sharoitda yuz berdi.

Jangari millatchilik, diniy murosasizlik va «o'zimizniki» bo'lmagan hamma narsaga nafrat bilan qaraydi. SHu boisdan bularni har tomonlama hisobga olgan holda ma'naviy tiklanishning ijobiy, bunyodkorlik, bir - birini to'ldiradigan siyosiy, iqtisodiy va madaniy dasturlar ishlab chiqish, amalga oshirishni zarur qilib qo'ydi.

Hozirgi vaqtda xavfsizlikni ta'minlashni texnologik va texnokratik uslubiyot asosida tashkil etish-davr talabidir. Yoshlarning axborot xavfsizligini ta'minlash vazifasi, o'z navbatida jarayonni tizimlashni, natijani avvaldan kafolatlashni, jarayonga istalgai paytda tuzatishlar kiritish imkoniyati bo'lishini taqozo etadi.

Milliy, madaniy-ma'naviy, axloqiy, tarixiy qadriyatlarga bo'lgan munosabat masalasida ham jiddiy xatoliklarga yo'l qo'yildi. O'zlarini ilmning hamma sohasini yakkayu yagona bilag'oni deb atagan kommunistik mafkura targ'ibotchilari o'z faoliyatlarida o'tmishdan qolgan barcha madaniy merosni butunlay inkor etish yo'liga o'tib oldilar. Navoiy, Bobur, Ulug'bek, Yassaviy, Mashrab, Nodirabegim singari ulug' insonlar feodalizm davri namoyondalari, deb e'lon qilinishi oqibatida, ularning meroslarini o'rganish, unga to'la, xolisani baho berish imkoniyati cheklandi. Milliy qadriyatlarimizga nisbatan bo'lgan bunday adolatsiz munosabat O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgunga qadar davom etdi. Erishilgan mustaqillik xalqimiz madaniy-ma'naviy taraqqiyotiga keng yo'l ochib berdi. O'zbekistonda hozir madaniy merosimizga alohida e'tibor bilan qaralmoqda, juda ko'plab ilmiy, badiiy, tarixiy, falsafiy asarlar, qadimiy qo'lyozmalar ketma-ket nashr qilinmoqda. Noyob tarixiy yodgorliklarni saqlash va ta'mirlash ishlari ilk mustaqillik yillaridanoq boshlangan. Xalqimiz dahosi bilan yaratilgan va g'ayriqonuniy ravishda respublikadan tashqariga olib ketilgan, milliy boylik bo'lgan san'at asarlarini, qimmatli qo'lyozmalarni izlab topish, O'zbekistonga qaytarish chora-tadbirlari ko'rilyapti. "Noyob tarixiy yodgorliklarni saqlash va ta'mirlash, o'zbek xalqi yaratgan va milliy boylik bo'lgan san'at asarlarini izlab topish, ularni O'zbekistonga qaytarish ma'naviyat dasturimizning muhim bo'lagini tashkil etadi. Bu milliy boylik bizga ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan. Binobarin, biz ham uni ko'z qorachig'iday asrab-avaylashimiz va

farzandlarimizga meros qilib qoldirishimiz kerak. ... Butun dunyoda bunday noyob boyliklar birinchi galda davlat muzeylari tomonidan sotib olinadi va saqlanadi. Biz ham xuddi shu yo'ldan borishimiz, buning uchun kerakli mablag'ni aslo ayamasligimiz darkor. Tengsiz milliy boyliklarimizning shuncha talon-toraj qilingani yetar, endi biz bunga aslo yo'l qo'ymaymiz", deganda I.A.Karimov qanchalar haq edi. Respublikamizda ilm-fan, madaniyat, xalq ta'limi, maorif, adabiyot va san'atni rivojlantirish, tarixiy obidalarni ta'mirlash, asliga keltirish, qariyb unutilayozgan xalq hunarmandchiligini tiklash masalalari bo'yicha Prezident farmonlari e'lon qilindi, bir necha qarorlar qabul qilindi va ularning ijrosi ta'minlanmoqda.

Xulosa qilib aytganda xalqimizning ma'naviy merosi, an'analari, urf-odatlar, adabiyoti, san'ati bilan umuminsoniy qadriyatlarning milliy darajada namoyon bo'lish shakllari islomiy qadriyatlar bilan bog'lanib ketgan. Ular millatimizning tarixiy rivojlanish jarayonida avloddan avlodga o'tib kelayotgan madaniy xususiyatlar va jihatlarda o'z aksini topadi.

Adabiyotlar:

1. Islom va milliy qadriyatlar. Abdus Somad Abdul Vosit Tojiddinov, Toshkent islom instituti talabasi Muslim.uz.04.11.2017
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka, tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.6. -T.: «O'zbekiston», 1997. 31-40, 125-135, 149-162-betlar.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: «O'zbekiston», 2000. 6-12, 14-26, 28-38, 47-48-b.
4. Abdulla Avloniy. «Turkiy guliston yoxud axloq». -T.: «SHarq» 1994. 39-52-betlar.